

Turkiy manbalarda mumtoz qofiyaning nazariy asoslari

HAMROYEVA ORZIGUL JALOLOVNA*^I

Annotatsiya

Mumtoz qofiya nazariyasi aks etgan muhim manbalardan biri shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-baloga” asaridir. Maqolada poetikaning “ilmi segona”(ilmlar uchligi)ning tarkibiy qismlaridan biri qofiya ilmi haqida batafsil to‘xtalinadi. Ilmi qofiya, uning o‘ziga xosligi, unsurlari, turlariga bag‘ishlangan bir qancha risolalar mavjud bo’lib, Ahmad Taroziyning “Funun ul-baloga” asari poetika ilmiy nazariy asoslari keltirilgan muhim manbalardan biridir. Mumtoz qofiya oid risolalarning aksariyati arab va fors tilida yaratilgan bo’lib, Ahmad Taroziyning “Funun ul-baloga” asari mumtoz poetika ilmiga oid turkiy tildagi manbadir. Ahmad Taroziy asarning 2-bo‘limini qofiya ilmiga bag‘ishlagan, bo‘lim tarkibidagi “fasl”larda qofiya unsurlarini birma-bir izohlagan. Qofiya harflari, harakatlari va qofiya turlari “fasl”larda izohlanadi. Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” va Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” asarlarida ham mumtoz qofiyaning nazariyasi haqida ixcham ma’lumot keltiriladi. Maqolada “Funun ul-baloga”da keltirilgan qilmi qofiyaga oid ilmiy-nazariy fikrlar hamda Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” va Abdurahmon Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” asarlaridagi qofiya nazariyasiga oid qismlar tadqiq etiladi.

Kalit so’zlar: Poetika, risola, ilmi segona (Ilmlar uchligi), qofiya, hurufi qofiya (qofiya harflari), qofiya turlari

Türk kaynaklarında klasik kafiyenin kuramsal temelleri

Dipnot

Klasik kafije teorisinin en önemli kaynaklarından biri Şeyh Ahmed Tarozi'nin “Funun ul-Baloga”sıdır. Makale, şiirin “bilim üçlüsü”nün bileşenlerinden biri olan kafije ilmini ayrıntılı olarak ele almaktadır. Bilimsel kafije, özgünlüğü, unsurları, türleri hakkında birçok risale vardır ve Ahmed Tarozi'nin “Funun ul-baloga” adlı eseri poetikanın teorik temelleri konusunda önemli

* Dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail – arguvon87@mail.ru
ORCID ID : 0000-0002-3904-9712

kaynaklardan biridir. Klasik kafije üzerine risalelerin çoğu Arapça ve Farsçadır. Tarazi'nin "Funun ul-baloga"sı, klasik şiir ilmine dair Türk dilindeki kaynaktır. Ahmed Tarozi, eserinin ikinci bölümünü kafije ilmine ayırmış ve bu bölümün "bölüm (fasl)" lerindeteker teker kafiyenin unsurlarını anlatmıştır. Kafiyeli harfler, hareketler ve kafije türleri "bölüm (fasl)" lerde açıklanmıştır. Abdurauf Fitrat'ın Edebiyat Kuralları ve Abdurahman Sa'di'nin Pratik ve Teorik Edebiyat Dersleri de klasik kafije teorisinin kısa bir açıklamasını sunar. Makale, Fünun ul-baloga'daki kafije ile ilgili bilimsel ve teorik görüşlerin yanı sıra Abdurauf Fitrat'ın Edebiyat Kuralları ve Abdurahman Sadi'nin Pratik ve Teorik Edebiyat Dersleri'ndeki kafije teorisini incelemektedir.

Anahtar Kelimeler: Poetika, risale, ilmi segona (Bilimlerin Üçlü), kafije, harf kafiyesi (kafije harfleri), kafije çeşitleri

Theoretical foundations of classical rhyme in Turkish sources

Annotation

One of the most important sources on classical rhyming theory is Sheikh Ahmad Tarozi's "Funun ul-Baloga". The article discusses in detail the science of rhyme, one of the components of the "science triad" of poetry. There are several treatises on scientific rhyme, its specificity, elements, types, and Ahmad Tarozi's work "Funun ul-baloga" is one of the important sources on the theoretical foundations of poetics. Most treatises on classical rhyme are in Arabic and Persian. Ahmad Tarazi's "Funun ul-baloga" is the only source in the Turkic language on the science of classical poetry. Ahmad Tarozi devoted the second part of the work to the science of rhyme, and explained the elements of rhyme one by one in the "chapters (fasl)" of the section. Rhyming letters, movements, and types of rhyme are explained in "chapters (fasl)". Abdurauf Fitrat's "Rules of Literature" and Abdurahman Sa'di's "Lessons in Practical and Theoretical Literature" also provide a brief account of the theory of classical rhyme. The article examines the scientific and theoretical views on rhyme in "Funun ul-baloga", as well as the rhyming theory in Abdurauf Fitrat's "Rules of Literature" and Abdurahman Sadi's "Lessons in Practical and Theoretical Literature".

Keywords:

Poetics, pamphlet, ilmi segona (Trinity of Sciences), rhyme, letter rhyme (rhyming letters), types of rhyme

Kirish

Sharq mumtoz adabiyotida muhim ilmlardan biri - ilmi qofiyaga oid bir qancha maxsus risolalar yaratilgan bo'lib, ularda bu ilmning nazariy asoslari bilan birga, amaliy ahamiyati ham

isbotlab berilgan. Qofiya ilmi nazariyasiga oid ilmiy qarashlar ilmi aruz va ilmi bade'ga nisbatan ancha ilgari yaratgan bo'lib, ilmi segona tadqiqotchilar she'rshunoslikda bu ilmning muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi anglaganlar. Arab olimlari Ibn Qutayba, Qudama ibn Ja'far, Asmaiyl, Ibn Xaldun kabi olimlarning asarlarida she'rshunoslik, she'r tuzilishi kabi masalalalar bilan birga poetikaning ajralmas qismlari, xususan, ilmi qofiya haqida ham ilmiy qarashlar mavjud. Yunon va hind she'r shaklini o'rgangan Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham she'r san'ati va tuzilishi borasida munosabatlar mavjud. Biroq bu munosabatlar ma'lum bir millatning she'riy shakliga moslashtirilib tushuntirilgani bois anchayin sodda. Abu Abdulloh Xorazmiy "Mafotih al-ulum", Damanxuriyning "Al-hoshiyau-l-kabiri ali matnu-l-kofiy fi ilmu-l-aruz va-l qavofiy", Yusuf Sakkokiyning "Miftoh u-l- ulum", Qinoiyning "Mezonu-z-zahab fi va-l sinoat she'ru-l-arab", Shams Qays Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'yiri ash'oru-l-ajam" [Roziy, 1991], Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" [Jomiy, 1867], Vohid Tabriziyning "Jami' muxtasar" [Tabriziy, 1959], Nosiriddin Tusiyning "Mi'yor-l-ash'or" [Tusiy, h.1325], Atoulloh Husayniyning "Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi" [Husayniy, h. 1393], Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" [Taroziy, 2008] kabi asarlarda esa ilmi qofiyaning nazariy asoslari maxsus ilmiy nazariyalar bilan tadqiq qilingan. Keyinchalik rus, turk, ozarbayjon, tojik, o'zbek adabiyotida ham aynan shu manbalarga asoslanib bir qancha tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda qofiyaning nazariy asoslarini anglagan holda ma'lum ijodkor ijodiga nazar tashlandi.

Funun ul-balogs'a"ning tarbiy qismi

"Funun ul-balogs'a" asari mumtoz poetikaga oid nazariy qarashlar jamlanmasi bo'lib, turkiy she'riyat tadqiqi uchun muhim manbadir. Mumtoz poetikaning nazariy asoslari aks etgan arabiyl, forsiy, turkiy manbalar mumtoz matn tahlilini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Poetikaga bag'ishlangan arab, fors tilidagi asarlar ta'siri natijasida yaratilgan "Funun ul-balogs'a" asari turkiy tilda ijod qiladigan ijodkorlar uchun ularning talabi bilan yuzaga kelgan edi. Poetika ilmi: badiiyat, aruz, qofiya, uslub, bayon, shakl va mazmun kabi masalalar mumtoz adabiyotning asosidir. Bu ilmlarning nazariy asoslari o'sha til qonuniyatları asosida yaratiladi, baholanadi, tadqiq etiladi. Ahmad Taroziyining "Funun ul-balogs'a" asari poetika ilmiga oid arab, fors manbalardagi qonuniyat, munosabatlarning jamlanmasi bo'lishi bilan birga unda bu ilmlarning ancha mukammal, takomillashgan ko'rinishi aks etgan. Asarda adabiy tur, janr, badiiy san'atlar, vazn va qofiya ilmiga oid nazariy fikrlarning taraqqiy etganligini kuzatish mumkin. Ahmad Taroziy ilmlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismlari, tushunchalariga izoh berar ekan, misollar, baytlar orqali tushuntirishga harakat qiladi. "Ilmlar uchligi" tarkibining muhim qismlaridan biri qofiya va uning nazariyoti xususida "Funun ul-balogs'a"da keng ma'lumot berilgan. Ma'lumki, asarda muqaddimadan tashqari 5 qism keltirilgan bo'lib, bu qismlarda olim

adabiy tur va janrlar, ilmi qofiya, ilmi bade', ilmi aruz va muammoning nazariy masalalarini yoritib bergen. Nazariy ilmlar xususida munosabat bildirish muallifdan kuchli bilim talab qilinadi. Asarni o'qish chog'ida olimning ana shunday kuchli ilmga ega ekanligining guvohi bo'lish mumkin.

Ahmad Taroziy qofiya ilmini tushuntirar ekan, o'z fikrlarini o'zigacha bo'lган shu yo'lda yaratilgan ilmiy asarlardagi qarashlar bilan birga izohlaydi. Ahmad Taroziy "Funun ul-balogs'a"da qofiyani bir umumiy sarlavha ostida tushuntiradi. Shamsiddin Qays Roziyning "Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam" asari va ayni shu asar ta'sirida yaratilgan Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" asarlarida qofiyaning nazariy asoslari qismlarga bo'lingan holda izohlangan. Shams Roziyning "Al Mo'jam" asarida qofiya 5 bob asosida (Avvalgi bob: she'r va qofiya ma'nolari zikri hamda uning haqiqati va imkoniyatlari xususida; ikkinchi bob: qofiya harflari zikri va ularning asosi; uchinchi bob: qofiya harflarining harakatlari va ularning nomlanishi; to'rtinchi bob: qofiya hududi va sinflari; beshinchi bob: manzum kalomda ba'zan uchrovchi qofiya ayblari zikri va noma'qul sifatlar) tushuntirilgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiyning "Risolai qofiya" asarida 8 fasl (1. Bismillahi-r-rahmani-r-rohim; 2. Muqaddima; 3. Hurufi qofiya; 4. Harakoti qofiya; 5. Qofiyaning taqt'i e'tibori bilan turlari; 6. Muqayyadi mutlaqu mujarrad; 7. Ufubi(ayblari) qofiya; 8. Xotima) doirasida qofiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. "Funun ul-balogs'a"da esa "Al-fann-us-soniy-fi-l-qofiya va-radif" sarlavha ostida olimning bu ilm borasidagi qarashlari aks etgan[Jomiy, 1867]. "Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab'g'a qofiya ilmin bilmak muhimdir" jumlalari bilan boshlangan bu qismda olim qofiyaga baho berar ekan, qofiyani "she'rning asli" sifatida baholaydi. Qofiyasiz she'r bo'lishi mumkin emas. Olimning aytishicha, ba'zan qofiyasiz she'r ham uchrab turadi. Bu she'rga "harora she'r" deb nom berishgan. Olim o'z fikrlarini tadrijiy asosda berishni maqsad qilib, avval qofiyani nima ekanligini tushuntirishga harakat qilgan. Qofiya munosabatida olimlar o'rtasida ixtiloflar mavjud bo'lib, "Funun ul-balogs'a"da ularga birma-bir e'tibor qaratilgan. Ba'zi olimlar raviyni, ba'zilar so'nggi misrani, ba'zi olimlar esa baytning oxirgi juzvini, ya'ni tavil bahri juzvi sifatida "mafoil"ni, rajaz bahri rukni sanalgan "mustaf'ilun"ni qofiya deb ataydilar. Olim qofiyaning turlari xususida munosabat bildirar ekan, "Fasl" so'zi bilan ajratgan holda qofiya huruflarini izohlaydi. Arab shoirlari qofiya asosida 6 huruf, 6 harakat bo'lishini ta'kidlaydilar. Ulardan hurufi *ta'sis*, *daxil*, *ridf*, *raviy*, *vasl*, *xuruj* kabilalar qofiya harflari bo'lsa, *itloq*, *xazv*, *rass*, *ishbo'*, *tavjih*, *nifoz* kabilalar qofiya harakatlari (unlilar – O.H) sifatida keltiriladi. Ajam olimlari esa arab olimlaridan farqli o'laroq hurufi qofiyani 9 taga yetkazadilar. Ular: *ta'sis*, *daxil*, *ridf*, *qayd*, *raviy*, *vasl*, *xuruj*, *mazid* va *noyira*.

Qofiya harflari

Bu harflarning orasida raviy qofiya tarkibidagi doimiy uchraydigan harfdir. Qolgan huruflar qofiya tarkibida ba'zan uchrashi, ba'zan uchramasligi mumkin. Raviydan boshqa hurufning qofiyaning "guziri" bor. Olim ta'kidlaganidek, "qofiyaning asli raviy"dir. Ahmad Taroziy qofiya huruflariga munosabat bildirishda ajam olimlari tasnifiga yondashadi. Hurufi qofiyadan to'rttasi raviydan oldin, to'rttasi raviydan keyin keladi. Olim qofiya harflariga sharh berar ekan, sharhni raviydan boshlaydi. Ahmad Taroziy raviy qofiya tarkibida keladigan o'zaro bir xil tovush ekanligini ta'kidlab, "sanam" va "manam" so'zlarini namuna sifatida keltiradi. "Sanam" va "manam" so'zlaridagi mim (m harfi) rafiy sanaladi. Raviy misra oxirida ba'zan sokin, ba'zan mutaharrik(harakatli – O.H.) tarzda bo'ladi. Ahmad Taroziy raviyning bu ikki shakliga alohida misol keltirib, qofiya turlarini belgilab beradi. Agar raviy sokin bo'lsa, muqayyad, agar raviy mutaharrik bo'lsa, mutlaq qofiya sifatida baholanadi.

Suyulur ko'rsa lablaringni shakar,

Rashk olur ko'rsa oy yuzungni qamar. [Taroziy, 2008: 63]

Ushbu baytda qofiya sifatida "shakar" va "qamar" so'zлari keltiriladi. Qofiyadosh so'zlardagi raviy ro (r harfi) harfidir. Qofiyadosh so'zlar raviy (r) bilan tugagan, demak, bunday qofiya muqayyad qofiya sifatida baholanadi. Ayni shu o'rinda Ahmad Taroziy Xoja Kamoldan bir bayt keltiradi. Bu baytdagi qofiyadosh so'zlarning oxiri sukonli raviy bilan tugagan, shu bois ham bunday qofiya muqayyad (kishanli – O.H) qofiya sifatida tushuntiriladi.

Man talab kardam visolat ro'zu shab,

Yoftam iynak ba hukmi "man talab". [Taroziy, 2008: 63]

Ahmad Taroziy mutaharrik raviy bilan tugagan baytga quyidagi baytni namunasi sifatida keltiradi.

Ey labingdin xijil Misr shakari,

Ko'rsa seni netar falak qamari. .[Taroziy, 2008: 63]

Ushbu baytdagi "shakar -qamar" so'zlaridagi r harfi raviy sifatida baholanadi. Ayni qofiyada r harfi i harakati bilan birga kelgani bois bunday qofiya mutlaq qofiya sanaladi. Bunday qofiya turiga namuna sifatida Mavlono Umid Kamoliyning

Zulfı nigor guftki, man az qir chanbaram,

Shabi surati shibhi sifat mushk paykaram. .[Taroziy, 2008: 64]

misralari keltiradi. Baytdagi "chanbaram - paykaram" qofiyadosh so'zlaridagi r harfi raviy sanalsa, raviy mutaharrik tarzda kelgan.

Ahmad Taroziy hurufi qofiyaga izoh berar ekan, keyingi harf sifatida vaslni izohlaydi. Vasl – raviydan keyin keladigan harf bo'lib, olim bu huruflarni izohlash chog'ida, avvalo, arab mazhabidagi holatini izohlab, namuna keltiradi. Olimning ta'kidlashicha, vasl arab mazhabida

madda va min harfidan bo'ladi. Ya'ni alif va vov harflari yo va ho harflari bilan birga kelishi kabi. Bu harflar misra oxirida harf shaklida kelgani bois ularni vasl sifatida baholash mumkin.

Qafi qablat – tafarruki, yo Sabo 'o. (Ajralishingdan oldin, Ey Sabo 'o, ergashgin.)

Ushbu misradagi “Sabo 'o” so'zidagi o (alif – O.H.) harfi vasl sanaladi.

Saqital – g'aysa ayyatuhal – hanomo mavoyo. (Ey boyqush, sen iflos joyga qo‘nding.)

Yoki:

Li xulutihi itloqun biriqqihi tahlodo.

(Uning tinishi tez aralashib ketishidan)

misralaridagi alif harfi vasl sanaladi.

Vasldan keyingi harf xuruj bo'lib, olim xurujni izohlar ekan, forsiy va turkiy tildagi baytlarni o'zaro qiyoslab tushuntiradi.

Ol engdin olsa nogoh ushul moh niqobni,

Topmas falakda o‘zga kishi oftobni. .[Taroziy, 2008: 64]

Ushbu baytdagi “niqobni - oftobni” so‘zlaridagi bo harfi raviy bo'lib, nun - vasl, yo – xurujdir. Olim turkiy baytdan so‘ng forsiy bayt keltirib, ularni qiyoslaydi:

Mo darsi sehr bar dari mayxona xushodam,

Avqoti duo dar rahi jonona nihodam. .[Taroziy, 2008: 65]

baytidagi dol – raviy, alif - vasl, mim – xuruj. Ahmad Taroziy alif va nun o'zaro vasl va xurujni hosil qilishi mumkinligini ta'kidlab, “pisaron – digaron” so‘zlari asosida tushuntiradi. Olim fikrlarni izchil davom ettingan holda nun va dol (mexezand), yo va dol (guzirid) harflarining birikuvi ham vasl va xurujni yuzaga chiqarishini ta'kidlaydi. Olim bir o'rinda:

Gar peshi tu ravim, hama jonu dil barim

misrasidagi “ravim - barim” so‘zlarini qofiyadosh so‘z sifatida baholab, yo va mim harflarini vasl va xuruj sifatida keltirar ekan, misradagi qofiyadosh so‘zlarni “ma'yub”ligini e'tirof etadi. Vasl va xurujdan oldingi harf, raviy aynan emas. “Faamo bular raviy bo'lmas. Agar raviy qilsalar, ul qofiya ma'yubtur”.

Xurujdan keyingi harf mazid bo'lib, mazid fors olimlari tomonidan olib kirilgan. Arab qofiya tizimida so‘zning oxirgi harfi xuruj sifatida tugallanadi. Arab qofiya tizimida mazid mavjud emas. “Funun ul-balogs‘a”da mazidga misol tariqasida ushbu baytni keltiriladi.

Tilar ko‘nglum yuzung ko’rsa, budur aning xayoloti,

Muyassar bo‘lsa bu davlat, bo'lur zohir kamoloti. .[Taroziy, 2008: 65]

Ushbu baytdagi “xayoloti – kamoloti” so‘zlaridagi lom – raviy, alif – vasl, te – xuruj, yo esa mazid sanaladi. Ahmad Taroziy keyingi namuna sifatida fors tilidagi baytni keltiradi. Haydar Xorazmiy baytida “guliston - bulbuliston” so‘zlari qofiyadosh so‘z sifatida kelgan.

	Raviy	Vasl	Xuruj	Mazid	Noyira
<i>gu</i>	<i>l</i>	<i>S</i>	<i>t</i>	<i>o</i>	<i>n</i>
<i>bulbu</i>	<i>l</i>	<i>S</i>	<i>t</i>	<i>o</i>	<i>n</i>

Maziddan keyingi harf noyira deb nomlanadi, odatda so‘zning oxiri noyira harfi bilan tugallanadi.

Chekarmen bu tma’ birla hamisha makru olingni,

Magar topqusimen bir komi dil birla visolingni. .[Taroziy, 2008: 65]

	Raviy	Vasl	Xuruj	Mazid	Noyira
<i>O</i>	<i>l</i>	<i>i</i>	<i>ng</i>	<i>n</i>	<i>i</i>
<i>Viso</i>	<i>l</i>	<i>i</i>	<i>ng</i>	<i>n</i>	<i>i</i>

Qofiya harflari orasida 4 huruf raviydan oldin keladi. Bular: *ta’sis, daxil, qayd, ridf*. Ahmad Taroziy izohni qayddan boshlaydi. Qayd raviydan oldin keladi. Raviy va qayd o‘rtasida hech qanday harf, harakat bo‘lmaydi.

Soldi usruk ko‘zungiz tavba-u taqvog‘a shikast,

Bo‘ldi olam yuzungiz davrida xurshidparast. .[Taroziy, 2008: 70]

Ushbu baytdagi “*shikast - xurshidparast*” so‘zlaridagi to harfi raviy sifatida keltirilgan bo‘lsa, sin (s) harfi qayd sanaladi. “Funun ul-balogs“a”da turkiy tildagi baytdan so‘ng fors tilidagi baytga ham murojaat qilinadi.

Yori mo sarvi baland ast, biguem baland,

Past guftan suhan az biymi raqibon to chand. .[Taroziy, 2008: 71]

“*Band - chand*” so‘zlaridagi nun harfi qayd sanaladi. Ayni shu o‘rinda qofiya haqidagi arabiyl, forsiy manbalardagi kabi qayd sifatida kela oladigan huruflar birma-bir sanaladi. Olimning ta’kidlashicha, qayd sifatida kela oladigan 10 huruf tayin qilingan: *b, x, r, z, s, sh, ayn, f, n, h*. Masalan, *sabr – abr, taxt – baxt, dard – mard, duzd – muzd, past – mast, gasht – dash, mafar – nafar, guft – suft, band – qand, mahr – jahr*. Olim yuqoridagi 10 harfdan tashqari boshqa harflar ham qayd sifatida kela olishni ta’kidlaydi. Agar qofiya sifatida keltirilgan so‘zlar arabiyl lafz bo‘lsa, boshqa huruflar ham qayd sifatida kela oladi. Masalan, *aqd – naqd, majd – najd, qalb – kalb* kabi. Olim e’tirof etganidek, qaysidir harflarninggina qayd sifatida kela olishini tayin qilish to‘g‘ri emas.

Agar e’tibor berilsa, qayd doimiy ravishda sukunli holatda keladi, hech qachon mutaharrik tarzda kelmaydi. Qayd ishtirok etgan qofiya muqayyad qofiya deb nomlanadi. Raviydan oldin keluvchi huruflardan biri ridfdir. Odatda ridf sifatida alif (o unlisi), vov (u unlisi)

va yo (i unlisi) keladi. Ahmad Taroziy mana shu 3 hurufdan o‘zgasi ridf bo‘lolmasligini e’tirof etadi.

Ey seningki, ol engingdin gulga har dam infiol,

Chun qaro zulfung erur mushki Xo‘tang‘a go‘shmol. .[Taroziy, 2008: 71]

Qofiyadosh so‘zlar “*infiol - go‘shmol*” so‘zlari bo‘lib, raviydan (l harfi) oldingi o unlisi ridf sanaladi.

Buzulg‘on bu mening ko‘nglumni ey hur,

Qil emdi bir tabassum birla ma‘mur. .[Taroziy, 2008: 72]

mistrasidagi qofiyadosh so‘zlar tarkibida esa vov (u unlisi) ridf sifatida keltirilgan. Yoki Xoja Kamoldan shunday bayt keltiriladi:

Agar tu faxr nadori ba dalqi gardolud,

Ayo zi xos nakardi ba hazrati Mahmud. .[Taroziy, 2008: 73]

Olim ridfga munosabat bildirar ekan, uning ma'ruf va majhul shakllari borligini ta’kidlaydi. Ridfga munosabatda arab va ajam olimlari orasidagi ixtilofiy fikrlarga to‘xtaladi. Arab olimlari yo (i unlisi) va alif harfini bir qofiya sifatida ishlatishadi. Ajam olimlarining ba’zilari bu fikrga qo‘silsa, ba’zilari qo‘silmasligini ta’kidlaydi.

Xoja so‘zini qilibon e’timod,

Kesti ajuz o‘z nimasidin umid. .[Taroziy, 2008: 68]

mistradagi “*e’timod - umid*” so‘zlarida dol (d) raviy bo‘lsa, alif (o unlisi) va yo (i unlisi) ridf sifatida ishlatilgan. Olim bunday holatni yaxshi emasligini, agar arabiy so‘z bo‘lsa, vov (u unlisi) va yo (i unlisi) kelsa, ravo bo‘lishini, lekin yuqoridagi kabi holatda ularni ridf sifatida baholash noto‘g‘ri bo‘lishini e’tirof etadi. Ajam she’riyatida ridf oxirigacha bir xil kelishi muhim ekanligini ta’kidlagan olim ridf va raviy orasida *x, r, s, sh, f, n* harflari kela olishiga misollar keltiradi. Qofiya haqidagi boshqa risola va asarlarda bunday holat ridfi zoyid atamasi bilan ishlatiladi. Daxil raviydan keyin keluvchi harflardan biri bo‘lib, bu harf raviy va ta’sis o‘rtasida keladi: *tohir – qosir*.

Ey bo‘ldi sening shoninga husn etti nozil,

Yurtur pari hurda bu shaklu shamoyil. .[Taroziy, 2008: 73]

Baytda qofiyadosh so‘z sifatida keltirilgan “*nozil - shamoyil*” so‘zlaridagi lom (l harfi) – raviy, o – ta’sis bo‘lsa, raviy va ta’sis o‘rtasidagi y harfi daxil sanaladi. Fors tilidagi quyidagi baytda “*olam - Odam*” so‘zlaridagi lom harfi daxildir.

Ey zoti tu bo zuhuri olam,

Chun xilqati Mustafo-u Odam. .[Taroziy, 2008: 74]

Ta’sis esa olim aytmoqchi “to‘qquz hurufning og‘ozi” sanaladi. Asarda keltirilganidek, alif (o unlisi)dan boshqa huruf ta’sis bo‘lmaydi. Olimlar ta’sisning ikki turini farqlashadi: 1.

Muttasil 2. Munfasil. Bu ikki turning ixtilofi borasida olimlar o‘rtasida fikrlarning turlichaligini kuzatish mumkin. Biroq “asar mussahoning ittifoqida ta’sisning a’moli shart” bo‘lishi kerak. Chunki chindan ta’sis she’rga ziynat beradi.

Qofiya butunligi

“Funun ul-balogs‘a”ning keyingi qismida (Fasl) bir qofiya tarkibida to‘qqiz hurufning ja’m bo‘la olish imkoniyati yoritib berilgan. Olim namunalarni bayt shaklida emas, shunchaki qofiyadosh so‘zlar shaklida beradi. Masalan,

Raviyyi yalg‘uz – gul – bulbul

Raviy va vasl - gulash – bulbulash

Raviy, vasl va xuruj – gulho – bulbulho... kabi.

Shu shaklda raviydan oldingi va keyingi huruflarning kelishini birma-bir izohlab o‘tadi. Bu kabi huruflarning asli bir qofiyada ja’m bo‘lishi qiyin. Ahmad Taroziy ayni o‘rinda qofiya huruflarning aksariyati ishtirok etgan qofiyaga ega baytni namuna sifatida keltiradi. Biroq unda ham qofiya huruflarining ishtiroki borasida kamchiliklar bor.

Qofiya ayb(nuqson)lari

Qofiya tarkibida keladigan hurufi qofiyalar o‘rtasida ba’zi kamchiliklar qofiya ayblarini yuzaga keltiradi. Ahmad Taroziy qofiya ayblari haqida munosabat bildirar ekan, uni maxsus sarlavha ostida bermaydi. “Fasl” kichik izohi bilan keyingi mavzuga o‘tib ketaveradi. Olim qofiya harakotlarini berish chog‘ida ular o‘rtasidagi ixtiloflarni qofiya ayblari sifatida ko‘rsatadi. Qofiya ayblari qofiya harakatlarini tasniflash chog‘ida uning tarkibiy qismi sifatida izohlangan. “Funun ul-balogs‘a”da qofiya ayblari sifatida *ikfo, iqvo, sinod, iyto, ijoza* kabi holatlar keltiriladi. “Funun ul-balogs‘a”da ta’rif ikfodan boshlangan. Asarda ikfo raviyning ixtilofi sifatida ko‘rsatiladi. Masalan, “*ehtiyot - e’timod*” kabi. Ayni so‘zlarda t va d harflari raviy sanaladi. Va ular aynan emas. Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs‘a”da ikfo hodisasiga “*ixtisot - e’timod*” so‘zlari misol qilib keltirilgan. Ayni so‘zlarda ham raviyning turlichaligini kuzatish mumkin. Ahmad Taroziy ham bu holatni shane’ (qo‘pollik) sifatida e’tirof etadi. Qofiya ayblari sifatida e’tirof etiladigan hodisalardan biri iqvo bo‘lib, bu qofiyaning aybi hazv va tavjihning teskarisidir. Bilamizki, hazv - raviy va qayddan oldingi harakat. Tavjih esa raviydan oldingi harakat sanaladi. Masalan, “*mard - dard*” so‘zi tarkibidagi a unlisi hazvdir. “*Kamar- samar*” so‘zlaridagi raviydan oldingi a unlisi esa tavjih hisoblanadi. Ayni so‘zlardagi a unlilari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ixtiloflar – har xillik natijasida iqvo yuzaga keladi. Qofiya ayblari sifatida ko‘rsatiladigan hodisalardan yana biri sinod nomi bilan keltiriladi. Masalan, “*zamon - zamin*” so‘zlarini qofiyadosh so‘z sifatida ishlatalishidir. “*Zamon - zamin*” so‘zlaridagi nun raviy sifatida ko‘rsatilsa, raviydan oldingi unli tovush ridf sanaladi. Odatta ridf sifatida cho‘ziq unlilar keladi. Qofiyaga oid asarlarda alif (o) aksariyat holatda ridf sifatida ishtirok etishi

qayd etilgan. Yuqoridagi so‘zlarga e’tibor qilinsa, so‘zlardagi ridf (o va i) har xil tovushlardan iborat, ya’ni kamchiligi bor. Bunday kamchilik olimlar ta’kidlaganidek, sinod deb nomlanadi. “Funun ul-balogs”da ham bu ixtilof, ya’ni sinod ko‘proq arab she’riyatida uchrashi, ular uchun bu holat ravo bo‘lishini, biroq fors adabiyotida bu hodisot ayb sanalashini alohida ta’kidlaydi. Masalan, “ud - iyd” so‘zlaridagi kabi.

Qofiya harakatlari orasida yana bir ixtilofiy holat mavjudki, bu holat iyto atamasi ostida keladi. “Funun ul-balogs” asarida iytoning xafiy shakliga “gulzor - lolazor” so‘zlarini namuna sifatida keltiriladi. Ahmad Taroziy bu kabi holat juda katta ayb ekanligini ta’kidlaydi. “Funun ul-balogs”da ijoza atamasi ostida ishlatiladigan ana bir hodisa haqida ma’lumot beriladi. Ahmad Taroziyning keltirishicha, ijoza tavjih va ishbo’ning ixtilofidir. Olim bu kabi ixtilofga “dilash - gulash” so‘zlarini namuna sifatida keltiradi. Ijozani Axwash (16-bahr ixtirochisi, Xalil ibn Ahmadning shogirdi – O.H) ayb sifatida ko‘rsatadi. Xalil ibn Ahmad esa ijoza qachonki, tavjihning ixtilofi bo‘lsagina, ayb bo‘lishini, ishbo’ning ixtilofi sifatida kelsa, ravo bo‘lishini ta’kidlaydi. Buning isboti sifatida “Funun ul-balogs”da Mavlono Jaloliddin Rumiyan quyidagi bayt keltiriladi:

Masnaviyi mo do‘koni vahdat ast,

Har chi bini g‘ayri vohid, on but ast.

Ushbu baytda qofiyadosh so‘zlar sifatida “vahdat - but” so‘zlarini keltirilgan bo‘lib, raviydan oldingi harakat turlicha, demakki, bu hodisot ham qofiya ayblaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Qofiya qismlari turlari

“Funun ul-balogs”da qofiya qismlariga asoslanuvchi qofiya turiga ham katta e’tibor berilgan. Mumtoz qofiyaga oid risolalarning aksariyatida qofiya qismlarining ishtirokiga ko‘ra turlari keltirilmaydi. Ahmad Taroziy mumtoz qofiyaning bu turiga alohida e’tibor qaratgan holda arabiya va forsiy manbalardagi turlari bilan o‘zaro qiyosiy tarzda o‘rganadi. Arab risolalarida qofiya qismlarining ishtirokiga ko‘ra asosan besh turidan foydalanishlarini aytib o‘tadi. Birinchisi *mutavotir* bo‘lib, “*paydar-pay, ketma-ket*” degan ma’noni anglatadi. Qofiyaning mutavotir turida sokin harf, sokin harfdan keyin bir mutaharrik harf va sokin harf joylashadi. Demak, sokin+mutaharrik+sokin (raviy) shaklida. Bunday qofiya turiga misol sifatida *axtar – anbar* so‘zlarini namuna sifatida keltirish mumkin. *Axtar* va *anbar* so‘zlaridagi sokin – x va n harfi bo‘lsa, undan keyingi mutaharrik harf t (ta) va b (ba) harfidir. Ushbu qofiyadosh so‘zda r harfi sokin (raviy) harf sifatida ishlatilgan. “Funun ul- balogs”da mutavotir qofiya turiga namuna sifatida quyidagi bayt keltirilgan:

So ‘zidin rashk olur, shakkar yuzidin ham chaman-u gul,

Ko ‘zidin uftonur nargis, sochidin to ‘lg‘onur sunbul. .[Taroziy, 2008: 61]

Baytdagi gul – sunbul so‘zlari o’zaro qofiyadosh so‘zlar bo‘lib, l harfi raviy sanaladi. U va n harfi sokin undan so‘ng bir mutaharrik g (gu) va b (bu) harf ishtirok etgan. Xoja Kamoldan shunday bayt keltiriladi:

Soqiy, may barafuz imshab charog ‘i majlis,

Xilvat besoz xoli az zohidi musavvas. .[Taroziy, 2008: 61]

Baytdagi *majlis* – *musavvas* so‘zlari o’zaro qofiyadosh so‘zlar sifatida kelgan bo‘lsa, s undoshi sokin - raviy, j – v bir sokin harf, sokin harfdan keyingi l (li) va v (va) harakatli harfi qofiyaning mutavotir turini yuzaga keltirgan.

“Funun ul-balogs‘a”da qofiyaning keyingi turi sifatida *mutarodif* turi izohlanadi. Mutarodif ridfli qofiya ma’nosini anglatadi. Bilamizki, ridf raviydan oldingi cho‘ziq unli sanaladi. Asarda mutarodif qofiya turi sokin harfdan so‘ngra bir mutaharrik va ikki sokindan iborat bo‘lishi aytildi.

Qamar bo‘ldi yuzung davrinda mashhur,

Qoshingda ham qamug’ mehrobi ma’mur. .[Taroziy, 2008: 62]

Demak, ridfdan oldin ikki sokin va undan oldin bir mutaharrik harfli so‘z aynan mutrodis qofiya turini yuzaga keltiradi. *Mashhur* – *ma’mur* qofiyadoshi so‘zidagi r harfi sokin-raviy bo‘lsa, u unlisi ridf (sokin), ridfdan oldingi harf ham sokin tarzda ishtirok etgan.

Keyingi qofiya turi *mutadorik* deb nomlanib, “yetishuvchi, orqadan kelib qo‘shiluvchi” kabi ma’nolarni anglatadi. Bunday qofiya turida sokin harfdan so‘ng ikki mutaharrik harf ishtirok etadi. Masalan, *anjuman* – *nastaran*.

Chu qadu oraz fikridin qilsam vidoi anjuman,

Qabrimdin utgusi base sarvi sihivu nastaran. .[Taroziy, 2008: 63]

Baytdagi *anjuman* – *nastaran* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar sanalsa, n undoshi raviy bo‘lib, *anjuman* so‘zidagi n, *nastaran* so‘zidagi s undoshlari sokin harfdir. Sokin harfdan keyin ikki mutaharrik harf (*anjuman* – j, m; *nastaran* – t, r) ishtirok etgan. Bunday qismlar qofiya qismlarining ishtirokiga kovra mutadorik qofiya turini shakllantiradi.

“Funun ul-balogs‘a”da qofiyaning keyingi turi sifatida *mutasoviy* turi keltiriladi. Ahmad Taroziy arab adabiyotidagi qofiyaning 5 turini e’tirof etar ekan, ajam fuzalosi yana uch tur qo‘shganliklarini ta’kidlaydi. Shulardan biri mutasoviy qofiya turi bo‘lib, “Funun ul-balogs‘a”ning o‘zbek tilidagi nashrlarida bu nom turlicha keltirilgan. A.Hayitmetov nashrida mutasoviy shaklida, H.Boltaboyev va J.Jo’rayev nashrida mutavosiy nomi bilan keltiriladi. Bu qofiya turi sokin harfdan keyin ikki mutaharrik va ikki sokin arf kelishini taqozo qiladi.

Ey jamolingdin topibtur husn har dam ehtirom,

Mubtalo bo‘ldi g‘ami ishqing bila har xosu om.

Qofiya qismlarining joylashuviga ko’ra keyingi turi *mutarokib* qofiya turi bo’lib, “bandli, bog‘langan” degan ma’noni anglatadi. Mutarokib qofiya turining o‘ziga xso xususiyati shundaki, qofiyadosh so’z tarkibida sokin harfdan so‘ngra uch mutaharrik va bir sokin harf ishtirot etadi. Masalan, *dilbari man - sarvi chaman*.

Yo rab, el ichinda ehson-u ato bo ’ldi adam,

Yo magar yer yuzida qolmadi hech ahli karam. .[Taroziy, 2008: 63]

Mumtoz qofiyaning keyingi turi *mutarojih* deb nomlanadi. Bu qofiya turi arablarda mavjud emas, fors fuzalolari tomonidan qo’shilgan 3 qofiya turidan biri sanaladi. Mutarojih qofiya trida sokindan so‘ng uch mutaharrik va ikki sokin keladi. Masalan, *naqshi jahon – borigaron*.

Ol engin bossa yengi birla o’shul javhari jon,

Ko ’zlarim shul dam etar yer yuzini lolaston. .[Taroziy, 2008: 64]

“Funun ul-baloga”da keyingi qofiya turi sifatida qofiyaning *mutakovis* turi keltiriladi. Ahmad Taroziy qofiya turlarini belgilashda qofiyadosh so‘zlarining tarkiban murakkablashishga qarab qofiya turlarini ma’lum tizim asosida berib borgan. Qofiyaning mutakovis turi sokin harfdan keyin to‘rt mutaharrik va bir sokin harf kelishiga asoslanadi. Masalan, *gul shakari man – bar jigari man*.

Dog ‘i nehar husni tu bar ruxi qamar,

Otash zanad la ’li tu dar dili shakar. .[Taroziy, 2008: 64]

Qofiyaning *mutazoyid* turi oxirgi tur sifatida keltiriladi. Bu qofiya turini sokin harfdan keyin to‘rt mutaharrik va ikki sokin harf kelishiga asoslanadi. Masalan, *ey shahi jahon – dar dili kason*.

Pinhon tutar rozing ki bu dili hazin,

Saqlar oni payvasta chun durri samin. .[Taroziy, 2008: 64]

Ahamad Taroziy arab va fors tilidagi risolalardan farqli o‘laroq mumtoz qofiya nazariyasini sodda va baytlar misolida izohlashga harakat qilgan. Ma’lumotlar nisbatan keng va to‘liqroq shaklda berilgan.

XX asr boshlarida mumtoz qofiyaga munosabat

XX asr boshlarida Abdurahmon Sa’diy va Abdurauf Fitrat kabi olimlar adabiyot nazariyasi oid qarashlarini matbuot orqali e’lon qilish bilan birga, nazariy ilmlar yig‘indi bo’lmish darsliklarda qofiyaning o‘ziga xos ko‘rinishlarini XX asr o‘zbek she’riyatidagi ijodkorlar misolida asoslab bergen. Abdurahmon Sa’diy Fitratdan farqli o‘laroq qofiyani bitim deb ataydi. Fitrat qofiyaga ta’rif berar ekan, misralarning oxirida tovushlar bir xil turli bo‘lgan bo‘g‘um(bo‘g‘in)larga nisbatan qofiya so‘zini ishlataldi. A.Sa’diy mohiyatan ta’rifni shu shaklda beradi-yu, biroq bo‘g‘in tushunchasini hijo tushunchasi bilan almashtiradi. Bilamizki, hijo

tushunchasi aruz ilmiga oid atama bo‘lib, barmoq vaznida bo‘g‘in atamasi bilan almashgan. Ba’zi holatda barmoq vaznidagi bo‘g‘in hodisasi hijo atamasi ostidagi hodisa bilan aynan emasligi ham ma’lum.

A.Sa’diy bitim(qofiya)ni tizmalarning muhim sharti sifatida baholaydi. Qofiyaga ta’rif berish asnosida ilmi qofiyani o’quvchiga tanishtirish maqsadi bilan 4 misralik tizmadan namuna keltiradi.

Har kimda bir shodlik, har kimda bir ruh...

Har kim kulub qarar emish dunyog‘a;

Hatto chol-bobolar aytalarmish: Uh...

Chiqib yoursak edi yozg‘a, havog‘a!

Abdurahmon Sa’diy ushbu misralar muallifini keltirmaydi. Misrani tahlil qilar ekan, 1-va 3-misra (ruh, uh) va 2-va 4-misra (*dunyog‘a, havog‘a*) o‘zaro qofiyalanganini ta’kidlaydi. Fitrat “Adabiyot qoidalari”da qofiyaga ta’rif berar ekan, namuna sifatida ikkilikdan parcha keltiradi.

Adam adamdir, sajdalar ortiq,

Adam so’zlari adamg‘a tortiq.

Bordan tugar kuch bunga bor shohid,

O‘ylaring tubsiz, samarsiz zohid . [Fitrat, 1995: 54]

Ushbu misralar Botu qalamiga mansub bo‘lib, Fitrat misradagi qofiyadosh so’zlarni ko‘rsatar ekan, burungi she’rlar(mumtoz adabiyot)imizda qofiyaning juda katta o‘rni borligini alohida ta’kidlaydi. Hatto vazn, qofiyasi bo‘lmagan she’rni she’r sifatida baholashmaganligini eslatib o’tadi. Fitrat janrni belgilayotganda qofiyaning o‘rni borligini e’tirof etgan holda masnaviy va g‘azal janri asosida munosabat bildiradi.

Abdurahmon Sa’diy ham bu ikki janrga alohida to‘xtaladi. Ma’lumki, masnaviyda har ikki misra erkin qofiyalanadi. Yengilligi bois ham Abdurahmon Sa’diy aytganidek, masal va dostonlar aynan shu shaklda yoziladi. A.Sa’diy bunday asarlar sirasiga Muhammad Solihning “Shayboniynoma” va Alisher Navoiy dostonlarini kiritadi. Fitrat ham “Adabiyot qoidalari”da masnaviyni izohlar ekan, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridan 3 bayt holida masnaviy keltiradi. G‘azalning o‘ziga xos qofiyalanishi haqida munosabat bildirgan olim “G‘unchadek ko‘nglum mening” deb boshlanuvchi g‘azalni namuna sifatida keltiradi.

G‘unchadek ko‘nglum mening gulzor mayli qilmag‘ay,

G‘am bilan butkan ko‘ngil gulgash tila ochilmag‘ay.... [Fitrat, 1995: 54]

Keltirilgan g‘azal to‘liq holda emas, 4 bayti keltirilgan, xolos. Ushbu g‘azalda qilmag‘ay, ochilmag‘ay, qilmag‘ay (qofiya qaytarilgan: radd ul-qofiya san’ati), sanchilmag‘ay, ayrilmag‘ay so’zlari qofiyadosh so‘zlar sifatida qo‘llangan.

Abdurahmon Sa'diy "Amaliy ham nazariy adabiyot dasrlari" asarida g'azal janri haqida to'xtaladi, biroq namuna keltirmaydi. A.Sa'diy g'azalni muhabbat va hasrat she'rlari sifatida baholaydi. Garchi A.Sa'diy radif so'zini keltirmasa ham, radif tushunchasiga ta'rif berib o'tadi. "Ba'zan misralarning ketida hamon ilgarigi misralarning so'ngdag'i so'zlarning o'zi takror etila boradir. Lekin bu chog'da asl bitimlar shu takrorlang'an so'zlarning yuqori yog'idag'i qo'shni so'zlarda bo'ladir". Fitrat esa "ba'zi g'azallarda har misradan keyin birgina so'z qaytarilib" turishini, bu esa radif deyilishini alohida ta'kidlab, Bobur ijodidan namuna keltiradi:

*Jonima o't soldi ul ruxsorayi zebo yana,
Ko'ngluma ul zulf bo'ldi moyayi savdo yana.*

Har ikki olim ham fikriy tadrijiylik asosida keyingi munosabatni to'rtliklarga qaratadilar. Biroq fikriy munosabatda ayrichalik bor. A.Sa'diy to'rtliklarning a-a-a-b tarzdagi qofiyasini e'tirof etib, A.Yassaviy hikmatlari hamda Elbekning "Ikkinchisi" tizmasi ayni shu shaklda yozilganini ta'kidlaydi.

Fitrat esa to'rtlikning qofiyalanishiga ko'ra boshqa shaklini tushuntirishga harakat qiladi. Xuddi ruboiy kabi a-a-b-a tarzidagi qofiyalanish tartibiga ega to'rtliklarni izohlar ekan, 1-va 2-misralar va 3- va 4-misralarning o'zaro qofiyalanishiga asoslangan to'rtliklar ham mavjudligini ma'lum qiladi[Fitrat, 1995: 54]. Bunday qofiyalanish Fitrat ta'kidlaganidek, el adabiyotining ashula va dostonlarida uchraydi. Bu kabi qofiyalanish tartibi qat'iy bo'lmay, ba'zan ular o'zaro almashgan holda ham qo'llangan.

A.Sa'diy ham, Fitrat ham bugungi she'riyatda(o'z davri she'riyatini nazarda tutgan) qofiyaning yo'qolib borayotganligini e'tirof etadilar. Fitrat bunday vaziyatni adabiyotning el adabiyoti(xalq og'zaki ijodi adabiyoti)ga yaqinlashib borayotgani, uning yo'lidan borayotgani bilan izohlaydi. A.Sa'diy qofiyasiz she'rni bitimlardagi ohangsizlik sifatida baholaydi. Garchi olim bu tushunchani atama sifatida baholamasa ham, matn ichidagi ichki qofiyani (saj') ohangdoshlik sifatida ko'rsatadi. "Ohang o'lchovli so'zlarning o'z oralarida quloqqa zavq va lazzat berarlik bir ravishda saylanib to'planishlari va musiqiylik tug'dirishlaridan iborat". Olim "shoshilish, shoshish, kulishish, so'zlashish, chopishish, shodliqliq, to'g'riliqliq" kabi so'zlarning ohangdosh (qofiyasi to'liq emas) emasligini inobatga olib jumlaning ohangini buzadigan vosita sifatida munosabat bildiradi. Demak, olim barmoq vazni urf bo'layotgan bir davrda qofiya ayblariga ham qisman munosabat bildirib o'tgan.

*Agarchi yo'qdir "derliq" taloshi,
Erur tosh bo'lsa ham, chaqmoq toshi. Alisher Navoiy.*

Yoki

*Kuz qo'shuni og'u to'liq o'qlarni
Muni bilgach, ular buni tushundilar.*

Aldanishg‘a nega kundilar? Cho‘lpon.

Ko‘rinib turganidek, garchi *taloshi* va *toshi* so‘zлari qofiyadosh sanalsa ham, qofiya unsurlari o‘rtasida farq bor. Olim bu holatni yaxshi ilg‘agan. A.Sa’diy G‘ulom Zafariyning “Vannaychajon” asarini tahvilga tortar ekan, she’rdagi “yangratar” va “intilar” so‘zlarining bitimdosh (qofiyadosh) qilinishi ohangni buzishini aytadi. Olim Cho‘lponning “Bokuga, Sharq qurultoyig‘a ketganda” she’rida esa to‘liq ohangdoshlik kasb etgan bitimdosh so‘zlar keltirilganini ohangdoshlikning o‘ziga xos xususiyati sifatida baholaydi. A.Sa’diyning fikricha, bu kabi ohangsizlik “tizmaning ko‘b g‘azalligin yo‘qotish”ga sabab bo‘ladi. Olim bunday she’rga namuna sifatida Elbekning “Tilak yo‘lida” tizmasiga e’tibor qaratadi. She’rni ilmiy tahlil qilgan olim bitimlarning ohangsizligini she’rning kamchiligi sifatida baholaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs‘a” asarida hurufi qofiyaning nazariy asoslarini batafsil tushuntiradi, baytlar misolida dalillaydi. Ularni quyidagicha xulosalash mumkin:

- Olim qofiya to‘g‘risida yaratilgan barcha asarlar bilan tanish bo‘lgan. Shuning uchun ham ba’zi o‘rnarda ulardagi ma’lumotlarni qiyoslab beradi;
- Ilmi qofiya, hurufi qofiyaga oid fikriy ixtiqlafarga o‘zining munosabatini bildirib, qarashlarini dalillaydi;
- Namuna sifatida keltirilgan baytlarni ma’lum bir tizim asosida arab, fors, turkiy tilda bitilgan misralar ketma-ketligida beradi;
- Ahmad Taroziy atamalarni izohlash chog‘ida til qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda turkiy til imkoniyatlariga moslab tushuntiradi.
- O‘z davrining yirik olimlaridan A.Sa’diy va A.Fitrat birinchilardan bo‘lib, o‘z davri she’riyatiga mos ravishda qofiya ilmi haqida kichik tadqiqot yaratdilar. Har ikki olimning bu yo‘ldagi ilmiy qarashlari o‘z davri she’riyatining qofiya tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mumtoz poetikaning asosiy qismlaridan biri bo‘lmish qofiya ilmining nazariy asoslarini bilish, mumtoz parchalarni va har qanday she’rni to‘g‘ri tahlil va talqin qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Ат-Табризий, Абу Закарийя (ал-Хатиб) 1991. *Ал-кафи фи-л-аруд ва-л-кавафи* (перевод с арабского, исследование и комментарий Д.В.Фролов) / Классический арабский стих. История и теория аруда. Москва: Наука.
2. Ибн Рашик. 1972. *Ал-Умда фи маҳосин аи-шиър ва-адаби ва-нақди*. 4-е изд. Т. 1-2, Бейрут.

3. Крачковский, И.Ю. 1956. *Арабская поэтика в IX в. / Избранные произведения*. Т.2. Москва.
4. Замахшарий, М. 1989. *Ал-Қистос ал-мустақим фи илм-ил-аруз*. Байрут: Мактабат ул-амориф.
5. Мусульманкулов, Р. 1989. *Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв.* Москва: Наука.
6. Самарқандий, Низомий Арузий. 1986. *Нодир ҳикоялар*. Тошкент: Faфур Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
7. Туси, Носир ад-Дин. 1325. *Mi'yar al-aish'or*. Техрон.
8. Тўйчиев, У. 2011. *Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари*. Тошкент: Янги аср авлоди.
9. Розий, Ш. 1991. *Ал-Муъжзам фи маъойири ашъору-л-ажзам*. Душанбе: Адиб.
10. Тарозий, А. 1996. *Фунуну-л-балога*. Тошкент: Хазина.
11. Саъдий А. 1923. *Амалий ҳам назарий адабиёт дарслари*. – Тошкент.
12. Самойлов Д. 1982. *Книга о русской рифме*. – Москва.
13. Фитрат А. 1995. *Адабиёт қоидалари*. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев). – Тошкент. Ўқитувчи.
14. *Шарқ мумтоз поэтикаси*. 2008, Ҳамидулла Болтабоев талқинида. –Тошкент. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.